

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA XORIJIY TILLARNI O'QITISH USULLARI.

Tursunova Surayyo G'offor qizi
Toshkent Oriental Universiteti magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha ta'linda, boshlang'ich sinflarda xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini o'qitishdagi mavjud muammolar va ularning yechimlari haqida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Metodika, bolalar, talaffuz me'yorlari, multimedia, didaktik materiallar, samarali ta'lim.*

Bugungi tez suratlarda rivojlanib borayotgan dunyoda professional ta'limning asosiy qismlaridan biri xorijiy tillarni bilish hamda o'rgatishdir. Dunyo ta'lif tizizmida chet tillarini ayniqsa ingliz tilini o'rgatishning ahamiyati sezilarli tarzda oshib bormoqda. Bu albatta maktabgacha ta'lif jarayonini ham chetlab o'tmadi.

Avvalo maktabgacha ta'lif tizimida nima uchun xorijiy tillarni o'qitish kerak? degan savolga yuzlansak. Buning eng muhim sabablaridan biri shuki, maktabgacha ta'lif jarayonidagi bolalarda xorijiy tillarni tez o'zlashtirish darajasi kattalarga qaraganda ancha yuqori bo'lishi hamda bolalarda maktabgacha bo'lgan davrda ularning dunyoqarashini kengaytirish kabi masalalar ko'zda tutiladi. Xususan, buyuk mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy ham o'z asarlarida – Til bilgan el biladi deb xalqni til o'rganishga, dunyo qarashini boyitishga da'vat etgan. Maktabgacha ta'lif jarayonida xorijiy tillarni o'qitishning ijobiy jihatlari ham talaygina. Bu yoshdagi bolalar o'zlarining dunyoqarashlari shakllanayotgan davrda bo'lib, chet tillarini o'rgatish bolalarning dunyoqarashini kengaytiradi. Ularni ruhlantirib yangi bilimlarni o'rganishga undaydi.

Nafaqat maktabgacha ta'linda balki boshlang'ich ta'linda ham xorijiy tillarni o'qitish juda muhim. Fikrimcha, maktabgacha va boshlang'ich ta'lif jarayoni yuqori sinflardagi ta'lif jarayonidan tubdan farq qiladi. Ya'ni, xorijiy tillarni o'qitishdagi asosiy fundament maktabgacha va boshlang'ich ta'lif jarayonida shakllanadi. Shu sababli bu davrlar bolalarga chet tillarini o'qitishda samarali metodlar va kelgusida yaxshi natijalar talab qiladi. Shunday ekan maktabgacha va boshlang'ich ta'lif tizimida xorijiy tillarni o'qitishda bir nechta muammolar ham mavjud. Keling bu muammolar va uning yechimlari bilan tanishib olamiz. Avvalo oldimizda uchraydigan muammo bu ilk maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarni xorijiy tillarga qiziqtirish va ularni diqqatini jamlash. Bu masala birgina maktabgacha ta'linda emas, qolaversa boshlang'ich ta'lif yo'nalishida ham mavjud. Bolalarning idroklari tezkor bo'lib, ular barcha atrofdagi yuz berayotgan jarayonlarni diqqat bilan kuzatishadi va his qilib turishadi. Hamda, ular bu jarayonlardan tez zerikadi. Yana bir tur bolalar jarayonlarni ko'rib his qilib tursa ham, bu jarayonlarni qabul qilmaydi. Chunki bola uchun qiziqarli bo'lmagan jarayon uning e'tiborini tortmaydi. Bu albatta tarbiyachi

hamda o'qituvchilarning muammosi. Bolalarni chet tillariga qiziqtirish uchun nima qilish kerak? Zamonaviyashib borayotgan bolalarda rangli, jonli harakatlanayotgan didaktik materiallarga qiziqish kuchli bo'ladi. Bu borada o'qituvchilar o'rgatilayotgan mavzuga doir rangli kartochkalar, sifati yuqori bo'lgan mavzuga doir predmetlar aks etgan rasmli ko'rgazmalar hamda eng muhim davr talabi bo'lmish AKT vositalari va multimedialardan foydalanishlari lozim. Navbatdagi masala bu bolalar psixologiyasiga ham etiborli bo'lish. Har bir bolaning o'zini psixikasi bo'ladi. O'qituvchi dars jarayonida bu narsalarni xisobga olgan holda bolalar bilan suhbatlashib o'tmog'i ham lozim. Masalan bolalarning ismini, yoshini yoki qiziqishlarini so'rash yaxshi usuldir. Bu bolalarda e'tiborga tushganlik hissini uyg'otadi. E'tibor bergen bo'lsangiz o'qituvchilar sinfda suhbatga chorlagan bola keyingi safarga darslarga yaxshiroq tayyorlanib kelishga harakat qiladi. Bu o'rinda bolalar uchun "Maqtov" alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki bolalarning miyyasi 12 yoshgacha tanqid yani salbiy fikrlarni qabul qilmaydi. Agar siz bolaga uni qilma, unday dema noto'g'ri aytyapsan deb urishib bersangiz ulardagi qiziqish so'nib qoladi. Shu tufayli ularni doimo rag'batlantirish va kichkina yutuqlarini ham maqtash lozim. Ayniqsa bu xorijiy tillarni o'qitishda eng muhim qism hisoblanadi. Ya'ni chet tili o'qituvchilari bolalarga rag'bat sifatida, o'zlari o'rgatayotgan tilda eng zo'r sifatlar yozilgan stikerlar, sovg'alar berishsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bolalar sovg'alarga erishish uchun yoki maqtovlarni eshitish uchun harakatga tushib qolishadi.

Yana bir masalamiz xorijiy tillarni o'rgatish davomida talaffuz va so'z boyligini oshirishdagi yo'l qo'yiladigan xatolar.

Talaffuz. Bolalar talaffuzuni o'qituvchilardan o'rganishlari kamlik qiladi. Barcha bolalarda ham xorijiy tillardagi so'zlarni tushunish va to'g'ri talaffuz qilish imkoniyati mavjud emas. Ammo ba'zi pedagoglar bolalardan to'g'ri talaffuz qilishni qattiq talab qilishadi. Fikrimcha bu xato. Bolalar o'z imkoniyatlari darajasida talaffuz qilishadi bu paytda o'qituchilar ularning xatosini samimiylar tarzda to'g'irlab qo'yishsa bo'ldi. Bolalarning talaffuzini yaxshilash uchun hamda so'z boyligini ko'paytirish uchun turli xil metodlar mavjud. Misol uchun, Ingliz yoki rus tilidagi bolalar uchun mo'ljallangan multfilmlar va qo'shiqlardan foydalanilsa bolalar multfilmdagi harakat so'zlarini ma'nosini bilmasa ham undagi yuz berayotgan voqeliklardan anglab oladi. Musiqa va qo'shiqlarga kelsak biz musiqalardagi chet tili so'zlarini bolalarga yoki ular bilan birgalikda harakatlanib raqsga tushgan holatda ifodalasak bolalarda yangi so'zni harakatlar orqali tushunish ko'nikmasi paydo bo'ladi. Gapirish masalasiga to'xtalsak bolalar garchi noto'g'ri gapirsa ham gapirsin. Yuqorida aytganimizdek noto'g'ri gapiryapsan deyish xato. Gapirishni shakllantirish uchun kichik-kichik dialoglardan sahna ko'rinishi sifatida foydalanish samarali natija beradi. Yana bu borada "bu nima? U nima?" metodlarini ishlatish ham kerak. Bolalarga predmetlarning rasmi ekran orqali hamda plakatlarda ko'rsatiladi. Bu metodika bolalarni yod olgan so'zlarini mustahkamlashga yordam beradi.

Eng asosiysi maktabgacha va boshlang'ich ta'lism yoshidagi bolalarga ingliz va rus tillarini o'rgatishda har-xil o'yin tarzidagi metodikalardan foydalanish eng zamonaviy usullardan hisoblanadi. Bu uslubda sinfdagi deyarli barcha bolalar ishtirok etishga qiziqish bildiradilar.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy tillarni o'rgatish, ushbu davrdagi bolalarning kelajakda chet tilidagi bilimlarini eng asosiy fundamenti ekanligini tan olgan holda biz bu davrdagi bolalarga xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy usullaridan foydalanmog'imiz darkor. Darhaqiqat, maktabgacha va boshlang'ich ta'lism yoshidagi bolalarning miyya faoliyati to'xtovsiz o'sish rivojlanishda davom etayotganligi tufayli biz ularga xorijiy tillarni o'rgatishning innovatsion va qulay usullari ustida ishlamog'imiz kerak. Biz foydalanishimiz mumkin bo'lgan metodikalar ham bolalarning yoshiga qarab tanlash joiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumii-urta-talim/5141.htm>
2. <https://blog.xabar.uz/post/maktabgacha-ta-lim-jarayonida-xorijiy-tillarni-o-qitishning-zamo>
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/xorijiy-tillarni-oqitishning-samarali-usullari-nemis-tili-misolida>
4. Urmonovich N. O. MANGOSTEEN NUTRITIONAL PRICE AND FUNCTIONAL PROPERTIES //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 14. – №. 5. – С. 3-5.
5. Kanton Aaorgou. Fremdsprachen Lernen und lehren. Englisch an der primarschule. Leipzig-2017.S.238---239.